

BOLALAR UCHUN MO'LJALLANGAN  
MEDIKONTENTLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Yulduz Zohidova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar univetsiteti  
Uljamol Xonnayeva,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar univetsiteti

**Annotatsiya:** Bolalar uchun dasturlar audiovizual jurnalistikada hamisha dolzarb ahamiyat kasb etgan. Buni televidenie va radio misolida olsak, tele va radiojurnalistlar bolalar uchun dasturlarni hamma davrlarda ham mas'uliyat, katta javobgarlik hissi bilan tayyorlaganlar. Turli yoshdagi bolalarga mos, ularning qiziqishlariga mo'ljallangan va ijtimoiy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy, sport, musiqiy-ko'ngilochar mavzularga bag'ishlangan eshittirish va ko'rsatuvlar efirga berilgan. Maqolada avvallari radiokanallarda bolalar uchun tayyorlangan eshittirishlar katta auditoriyani to'plagan, bugungi kunda bolalar radioeshittirishlari soni kamayib, bu masalaga e'tibor qaratilmayotgani bayon etilgan. Shu bilan birga televideniya "Bolalar va o'smirlar" tahririyati tomonidan tayyorlangan va jonli efir orqali namoyish etilgan bir-biridan qiziqarli ko'rsatuvlar tahlilga tortilgan. Hozirda "Bolajon" va "Aqlvoy" telekanali orqali bolalar e'tiboriga havola qilinayotgan ko'rsatuvlar ular dunyoqarashi, ongi va ruhiyatiga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgani ochib berilgan. Bundan tashqari, bugungi kun bolasi televidenie, radio, Internet, ijtimoiy tarmoq va mesenjerlar orqali o'zi xohlayotgan mediakontentni tomosha qilayotgani ta'kidlab o'tilgan. Ammo kichikintoylarning, o'g'il-qizlarning ushbu mediakontentlarga haddan ziyod bog'lanib qolayotganiga har bir ota-ona jiddiy e'tibor qaratishi, uning ijobiy va salbiy tomonlari haqida tushuntirishi lozimligi qayd etilgan.

**Keywords:** bolalar auditoriyasi, mediakontent, ko'rsatuv, eshittirish, tele va radiokanal, Internet, ijtimoiy tarmoq va mesenjer

**Kirish va gipoteza**

Bolalar har bir millatning ertasi, kelajak jamiyatning quruvchisi sanaladi. Ular millat ma'naviyati bardavomligini ta'minlovchi asosiy kuch bo'lgani bois bolalar adabiyoti, bolalar matbuoti, bolalar mediakontentiga alohida ahamiyat qaratib kelingan. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida "o'rgimchak to'ri" deb atalmish Internet tarmog'ining keng tarqalishi bolalar ongu shuuriga salbiy ta'sir ko'rsatib, ommaviy madaniyat, yot g'oyalar singishiga sababchi bo'lmoqda. Shiddat bilan tarqalayotgan axborot bolalarning tafakkurini ham o'zgartirib yuborayotgani sir emas. Shuning uchun ham bolalar uchun teleko'rsatuv va radioeshittirishlarning mazmun-mohiyatiga katta e'tibor qaratiladi. Bolalarni yoshiga qarab, uch guruhga bo'lish mumkin, deydi mutaxassislar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar (2 yoshdan 7 yoshgacha);
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar (7 yoshdan 10-11 yoshgacha);
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar (12-14 yoshdan 15-17 yoshgacha);

**Iqtibos:**  
Zohidova, Yulduz; Xonnayeva, Uljamol. 2024.  
Bolalar uchun mo'ljallangan mediakontentlarning o'ziga xosligi.  
Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar Xalqaro ilmiy jurnali. 4:79-93.

yoshgacha) (Suyumov, Jumaboev, 1995).

“Bolalar va o‘smirlar fiziologiyasi va gigienasi” darsligida esa amaliy pedagogika va gigienada bolaning yosh davrlari quyidagicha belgilanishi ko‘rsatilgan:

1. bog‘cha yoshigacha bo‘lgan bolalar — 3 yoshgacha;
2. maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar — 3 yoshdan 7 yoshgacha;
3. maktab yoshidagi bolalar — 7 yoshdan 18 yoshgacha:
  - a) kichik maktab yoshidagi bolalar — 7 yoshdan 11 yoshgacha;
  - b) o‘rta maktab yoshidagi bolalar — 11 yoshdan 14 yoshgacha;
  - v) katta maktab yoshidagi bolalar — 15 yoshdan 18 yoshgacha (Sodiqov va boshqalar, 2005).

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga yurtimizda 0–14 yoshdagi jami bolalar soni 10 million 518 ming 483 nafarni tashkil etgan. Shundan:

O‘g‘il bolalar – 5 451 220 nafar

Qiz bolalar – 5 067 263 nafarni tashkil etadi (Ўзбекистонда болалар сони қанча?)

Televizor – maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchisining asosiy raqamli uskunasi sanalsa, o‘smirning asosiy gadjeti smartfon hisoblanadi. Multiekranlik va dijitalizatsiya bolalarning mediadan foydalanishining yangi belgilaridir. Bolalarning har kuni youtube orqali videokontentni tomosha qilishi, messenjerlardan foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishi odatiy holga aylanib qoldi. Shuningdek, planshet yoki telefondagi mobil o‘yinlar har ikkinchi bola uchun sevimli mashg‘ulotlaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Farzandlarning raqamli qurilmalarni erta va jadal egallashi ota-onalarni xavotirga solmoqda. Ommaviy axborot vositalari bolalar hayotining asosiy qismiga aylandi. Bola bilan aloqani yo‘qotmaslik, gadjet va mediamakon taqdim etadigan keng imkoniyatlardan samarali va xavfsiz foydalanish uchun Internet va raqamli qurilmalardan foydalanish mavzusiga e’tibor bilan qarashni, ota-ona bilan bolaning birgalikda media borasidagi qarashlarini ijobiy rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

### **Manbalar va tadqiqot usullari**

Ilmiy ishda ma‘lumot to‘plash va tahlil qilishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: bolalar va o‘smirlar uchun turli teledastur, teleko‘rsatuv va eshittirish hamda ijtimoiy tarmoqlarning tarkibiy xususiyatlari analizi, ilmiy adabiyotlar va maqolalarni tahlil qilish metodi, tarkibiy va funktsional yondashuv, olingan natijalarni umumlashtirish va tasniflash.

Maqolada Qirg‘izistonning “Дети и медиапотребле-

ние. Кыргызстан 2021» tadqiqot natijalari va Rossiyaning MOMRI instituti tomonidan tayyorlangan “Дети. Медиапотребление. 2017. Отчет MOMRI” hisoboti, шунингдек, Rossiya Milliy Massmedia assotsiatsiyasining “Медиаисследования детской журналистики: рекламизация и цифровизация” deb nomlangan VII xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan foydalanilgan.

Bundan tashqari, maqolada bugungi kunda bolalarning qaysi telekanal va teledasturlarni tomosha qilishi, shuningdek, radioeshittirishlarni tinglashi bo'yicha telegram kanali orqali o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltirilgan va ushbu natijalar ikkala mediakontentni qiyosiy tahlil qilishga asos bo'lgan. So'rovnomada 400 dan ziyod turli yoshdaagi respondent ishtirok etgan.

### Asosiy qism. Muhokama

O'zbekiston televideniesida “Bolalar va o'smirlar” tahririyati faoliyat yuritgan. Bolalar uchun mo'ljallangan dastlabki ko'rsatuvlar 1960-yillarga borib taqaladi. U davrda sanoqli ko'rsatuvlar tayyorlansa-da, sifat va saviya masalasiga katta e'tibor qaratilgan. “Quvnoq startlar”, “Qo'shimjon qo'shigim”, “Oqshom ertaklari”, “Dono bobo davrasida”, “Bolaligim poshsholigim”, “Shoirlar bolalarga” kabi ko'rsatuvlar kichkintoylar e'tiboriga havola qilinar edi. Bolajonlarning ma'naviyatini, dunyoqarashini shakllantiradigan, do'stlik, ezgulik, ahillik, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehr tuyg'ulari singdirilgan mazkur ko'rsatuvlarni tayyorlash uchun katta mehnat talab qilinardi. E'tiborli tomoni shundaki, ko'rsatuvlar jonli efirga uzatilgan (“Televideniye tarixi” ko'rsatuvi). “Dono bobo davrasida” ko'rsatuvi 1 oyda 2 marotaba namoyish etilib, nafaqat bolajonlar, balki ularning ota-onalari tomonidan ham katta qiziqish bilan tomosha qilingan. Dono bobo obrazidagi aktyor Fayzulla Ahmedov nabiralariga turli ertaklar, rivoyatlar hikoya qilib, odob-ahloq, tarbiya borasida pand-nasihatlari qilardi. Bolajonlar esa bobolariga she'r, topishmoq, tez aytishlar aytib, kattalarning o'gitlariga amal qilishni, tengdoshlari bilan inoq bo'lib o'ynashni o'rganishardi.

“Oqshom ertaklari” ko'rsatuvi har kuni soat 20:00da efirga uzatilgan. Maryam Yoqubova, To'liqin Tojiev kabi akter va aktrissalar bolajonlarga ertaklar aytib berishgan.

“Qo'shimjon qo'shig'im” ko'rsatuvi har yakshanba kuni kichkintoylar e'tiboriga havola qilingan. Unda “Bulbulcha” xor jamoasi rahbari Sheramat Yormatov o'g'il-qizlarga qo'shiq kuylashni o'rgatgan. Buko'rsatuv bolajonlarning musiqagabo'lgan qiziqishini oshirish, ashula bilan oshno bo'lishiga xizmat qilgan. “Bobom rahmatli televideniya har haftada «Qo'shig'imjon-qo'shig'im» ko'rsatuvi orqali chiqishlar qilib, yurtimizdagi

barcha bolalarga musiqadan ma'naviy ozuqa bergan. Sahna madaniyati, qo'shiq kuylash, she'r tanlash odobidan bolalarga o'zlarini tilida o'rgatganlar. Yodingizda bo'lsa, ko'pchilik bolalar shu ko'rsatuvning berilishini kutib o'tirishardi. Keyinchalik 45 yil davomida qo'yib kelingan ushbu ko'rsatuv to'xtatib qo'yildi. Televideniadagi nizomga o'zgartirishlar kiritildi, deb «Bolajon» kanalidan ham, «O'zbekiston» kanalidan ham ko'rsatuvni olishdi. Bolalarni musiqaga jalb qilish uchun bobom o'zlarini vakolatiga kirmagan ishlarni ham amalga oshirib, ssenariylar yozib, ko'rsatuvni tiklashga harakat qildi. Iltimos qilib mas'ul rahbarlarga chiqdi. Ammo natijasi bo'lmadi. Maqsad – bolalar xor jamoasini targ'ib qilish edi”, - deydi «Bulbulcha» bolalar xor ansamblining xormeysteri O'ktamjon Shokarimov (Rahmonova, 2022).

“Shoirlar bolalarga” ko'rsatuvida bolalar shoirlarining ijod mahsullari sanalgan she'rlarini aytib berishardi. Yana muhim jihat - bolalar o'zlari yozgan she'rlarini ham ustoz shoirlarga taqdim etishgan.

“Bolaligim poshsholigim” ko'rsatuvi esa bolaning qalbida muayyan o'y-fikr uyg'otishi, nafosatini o'stirishi va eng muhimi voqelikka nisbatan ma'lum munosabat bildirishi, san'at, adabiyot, sportdan boxabar bo'lishi, kitoblar bilan do'st tutinishiga xizmat qilgan. Jajji kichkintoylar, bolalar va o'smirlar auditoriyasi qamrab olingan mazkur ko'rsatuvda milliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya jarayonlari yorqin ifodalangan. Ko'rsatuvning har bir sonida bolalarga xos bo'lgan sahifalar aks etgan. E'tiborli tomoni shundaki, “Bolaligim poshsholigim” ko'rsatuvida bolalarning o'zlari boshlovchi, qahramon, mehmon va ijrochi bo'lgan.

Hozirda O'zbekistonda bolalar uchun mo'ljallangan ikkita telekanal - “Bolajon” va “Aqlvoy” telekanali faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi tomonidan tashkil etilgan “Bolajon” telekanali 2013-yilning 1-iyunidan boshlab “Yoshlar” teleradiokanali tarkibida faoliyat olib boradi va raqamli formatda ishlaydi. O'zbekiston Resublikasi Prezidenti 2012-yil 30-iyul kuni qabul qilgan “O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining raqamli telekanallari sonini oshirish, ulardan to'liq formatda foydalanish, sifatli boyitish va xizmat ko'rsatish to'g'risida”gi Qaroriga asosan ish boshlaydigan ushbu telekanal o'z nomi bilan aniqki, bolalar uchun mo'ljallangan turli ma'naviy-ma'rifiy, ko'ngilochar dasturlarni namoyish etmoqda. “Aqlvoy” telekanali esa 2021 yilning 22 martidan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda. Auditoriyasi asosan 3 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan bo'lib, xorijiy dasturlar, filmlar va multfilmlar taqdim etiladi.

“Bolajon” telekanalida “Katta tanaffus”, “Bola boshidan”, “Bola tilidan”, “Zukko bolajon”, “Sportchi bolajon”, “Assalom,

bolajon!”, “Rassom bolajon”, “Bolajon ustaxonasi”, “Zamonaviy bolajonlar” kabi ko‘rsatuvlar va turli televiktorinalar taqdim etiladi. Ularda ham bolajonlarning bilimni oshiradigan, tarbiyali va odobli bo‘lishga chorlaydigan jihatlarga katta e‘tibor qaratiladi. Lekin avvallari tayyorlangan bolalar ko‘rsatuvi bilan hozirgi mediakontent orasida katta farq bor, nazarimizda. Birinchidan, ko‘rsatuvlar saviyasi, ikkinchidan tayyorgarlik jarayonining murakkabligi.

“Aqlvoy” telekanalida esa turli zamonaviy multfilmlar namoyish etiladi. Mazkur multfilmlarning barchasini saviyali deb bo‘lmaydi. Ularda bolalarning tarbiyasi va ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi epizodlarni, be‘mani mediakontentlarni uchratish mumkin. “Aqlvoy” telekanalida bolalar uchun noma‘qul bo‘lgan sahnalar efirga uzatilgani uchun ushbu telekanal tanqidga uchragan edi. Telekanal orqali namoyish etilgan «Shaxrizoda. Aytılmagan hikoyalar» va «Art-Odissey» multseriallaridagi 2 ta lavha keng jamoatchilik orasida muhokamaga sabab bo‘lgan. «Aqlvoy» telekanali ijodkorlarining ma‘lum qilishicha, mazkur holat inson omili sabab yuzaga kelgan va buning uchun telekanalning barcha ijodkorlari tanbeh olgan («Aqlvoy» telekanalida bolalar uchun noma‘qul bo‘lgan sahnalar efirga uzatildi).

Bolalar radioeshittirishlari tarixiga nazar solsak, radio tashkil etilganining birinchi yilidan boshlab bolalarga katta e‘tibor berilgan. Shuningdek, birinchi radiodasturlar haqida ma‘lumotlar uzatayotganda, “Pravda Vostoka” gazetasi 1927-yili may oyining sonlaridan birida “6.00dan 7.00gacha radio bolalar uchun 1 soat vaqt ajratishini” (Говорит, 1977) yozgan edi.

Turli yoshdagi bolalarga mos, ularning qiziqishlariga mo‘ljallangan maxsus eshittirishlar yosh tinglovchilarni o‘ziga jalb etib bordi. Shuningdek, kattalarga atalgan, biroq bolalar ma‘naviyatini boyitadigan, ularga ma‘rifiy-estetik zavq berishi mumkin bo‘lgan ayrim radiodasturlar ham bolalar eshitadigan soatlarda efirga uzatilgan. Masalan, ta‘lim tarbiyaga doir, sport, sog‘lomlashtirish dasturlari shular jumlasidandir.

Dastlab, O‘zbekiston radiokanallaridaa bolalar uchun berilgan madaniy-ma‘rifiy dasturlarni suxandonlar o‘qib eshittirishdi. Bolalar uchun radiopostanovkalar qo‘yildi. Tunda esa bolalar uchun ertak aytib berildi. Bunga misol qilib “Oqshom ertaklari”(radioeshittirish) dasturini olishimiz mumkin. Bu rukn orqali muharrirlar bolalarni milliy va xorijiy ertaklar olami bilan tanishtirardilar. Ertak — bolalarning jon-dili. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ham ertakdir. Turli yoshdagi bolalarga mos, xalq yaratgan, minglab ertaklar bor. Bu ertaklar ijobiy qahramonlar: hayvonlar, parrandalar, salbiy qahramonlar jodugar kampir, devlar haqidagi afsonalardan iboratdir. Uni suxandonlar maromiga yetkazib, obrazga kirib,

o‘qib berishgan. Bu dastur tunda berilib, bolalar uyquga ketishidan oldin efirga uzatilgan, so‘nggida , ona allasi, ta’sirli tarzda ijro etiladi. Radioning “Oltin fond”ida saqlanayotgan “Bolalar uchun teatr” dasturida ham suxandonlar “Tulki bilan echki” (T.Yunusxo‘jaeva), “Oltin tojli xo‘roz” (Jo‘ra Tojiev), “Jimitvoy” (Turg‘un Xonto‘raev) (padioeshittirish) ishtirokida turli ertaklar asosida radiopostanovka tayyorlangan. Aktyorlar, suxandonlar turli jonivorlar xarakterini ovozda ijro etib berishgan. Ulardan sohir ovoz sohiblari Turg‘unoy Yunusxo‘jaeva, Temurmaliq Yunusov, Ra‘no Ashrapova, Muhammadjon Xo‘jaev kabi suxandonlar bolajonlar qalbida ertak qahramonlariga, jonivorlarga bo‘lgan qiziqish va mehr muhabbatni shakllantirishga xizmat qilgan.

“Oqshom ertaklari” rukni doirasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun alohida ertaklar beriladi. Ularda do‘stlikka sadoqat, ota-onaga mehr, sezgirlik, xaqiqatga intilish kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan asarlar tanlanib, efirga uzatiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq”, “Bo‘ri va yetti uloq”, “Qumursqa”, “Chivinboy” kabi ertaklar o‘qib beriladi. Ba’zi ertaklar o‘yin tarzida tayyorlanadi. Xususan, “Sholg‘om” ertagi o‘yin formatida bo‘lib, unda voqealar takrorlanishi barobarida o‘zgarib ham boradi. Ertak suhbat-dialog asosida qurilgan va bolalarni fikrlashga, voqealarni tartib bilan aytishga, so‘z boyligini oshirishga o‘rgatish bilan birga, kichkintoylarda mehnatga muhabbat, jamoa bo‘lib ishlash, yashash hislarini tarbiyalaydi.

Maktabning boshlang‘ich sinflarida ta’lim olayotganlar uchun ertaklar tanlanganda mavzulari murakkabroq asarlariga murojaat etiladi. Ular turli hayotiy vaziyatlardagi nizolar zaminini, o‘shanga muvofiq mazmun va tushunchalarni ifodalaydi. Bu yoshdagi tinglovchilarga dinamik xarakterga ega, tez harakatlanuvchi personajlarga boy ertaklar efirga uzatiladi. Bunga misol tariqasida “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq”, “Bo‘ri va yetti uloq” kabi xarakter, timsollarga ega, jajjilar uchun qiziqarli bo‘lgan ertaklarni misol qilishimiz mumkin.

Ertaklar davrdan davrga, avloddan-avlodga o‘tib, bizgacha yetib kelgan va bundan keyin ham insoniyatning bitmas-tuganmas madaniyati xazinasini sifatida yashayveradi. Ertaklarda xalq kurashi, ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini mujassam bo‘ladi. Ulardagi ijobiy qahramonlar o‘z maqsadlari yo‘lida harakat qilib, barcha to‘siq va g‘oyalarni mardlik bilan yengib, murodu maqsadlariga yetadilar. Ertaklarda har doim yozuvlik ustidan ezgulik g‘olib bo‘lgani, mehnat, ilm, ma’rifat yashash va hayotning asosi sanaladi. Bolalar uchun tayyorlangan dasturlarda, asosan ana shu yaxshiliklar keng talqin etiladi.

1-4 sinf o‘quvchilariga yo‘naltirilgan eshittirishlar nafaqat mavzu, balki kompozitsiya murakkabligi bilan ham xarakterlanadi.

“Kelajak tonggi” dasturining Dushanba kuni – aynan shu (7-10) yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, “Bola va dunyo” deb nomlangan. Unda asosan ilm va fanga doir qiziq ma‘lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, 7-10 yoshdagi bolalarning ilm- fan haqidagi fikrlari, a‘lochi, ijodkor o‘quvchilarning muvaffaqiyati haqida lavhalar tayyorlangan. “Kelajak tonggi” dasturida ko‘ngilochar tarzda matematika yoki grammatikaning ma‘lum bir qoidalari quvnoq qo‘shiq, teatrlashtirilgan tarzda yoki hazil-mutoyiba orqali tushuntiriladi.

Yillar o‘tib, bolalar uchun eshittirishlarni bolalar tilidan olib borish zaruriyati tug‘iladi va radio efirlarida turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarning ovozlari yangray boshladi. Tongda efirga uzatilgan “Pioner ertaligi” musiqiy-ko‘ngilochar, madaniy-ma‘rifiy dastur – mana shunday eshittirishlarning biri bo‘lib, unda bolalarning o‘zlari matn o‘qib, tengdoshlariga yetkazib berishdi. Shuning uchun bolalar uchun eshittirishlar tahririyatlarining tajribali jurnalistlari maktablardan so‘zamol, matnni yaxshi o‘qiydigan, artistlik qobiliyatiga ega o‘quvchilarni radiostudiyasiga jalb qilganlar. Biz bilgan, Nasiba Ibrahimova, Javlon Toshxo‘jaev, Ma‘fura Muhamedova, Muxtor Murodov kabi jurnalistlar o‘z xotiralarida, maktab o‘quvchiligi davridan boshlab, radioga kelgani, studiya bilan tanishgani va bolalar uchun dasturlarda matn o‘qigani haqida yozishadi.

“Pioner ertaligi” dasturi ko‘p yillar davomida nafaqat eshittirishlar boshlovchilarni, balki yosh muxbirlarni voyaga yetkazish vazifasini o‘tagan. Dastur davomida bolalar va o‘smirlar hayotidan turli lavhalar intervyu, reportaj, hikoyalar tarzida berib borilar edi. Va ularning ko‘pchiligini yosh muxbirlar o‘zlari tayyorlashgan.

Bolalar uchun tayyorlangan dasturlarda har kuni har xil mavzuda mulohaza qilingan. Ruknning ba‘zi sonlarida viktorina, musobaqalar elementlaridan foydalangan. Mazkur dastur sahifalarida kitob, dunyo davlatlari, shaharlar tarixi, ona sayyoramiz haqida qiziqarli ma‘lumotlar beriladi. Bolalar ijrosidagi xandalar, qo‘shiqlar muntazam berib boriladi. She‘r yozadigan, soz chaladigan, sport bilan shug‘ullanadigan iqtidorli, ijodkor bolalar bilan suhbatlar tashkil etib borildi.

Hozirda ham “O‘zbekiston” va “Yoshlar” radiokanallarida bolalar va o‘smirlar uchun turli dasturlar efirga uzatib kelinadi. Unda bolalar psixologiyasi, salomatligi bilan bog‘liq mavzularda sahifalar berib boriladi.

Yoshlar radiokanalida “Bolalar vaqti” – muloqot dasturi berib boriladi. Unda bolalar uchun radioviktorina ham tashkil etiladi. O‘zbekiston radiokanalida bolalar uchun ko‘plab dasturlar bor. “Bolalar uchun” dasturida maktabgacha ta‘lim va maktab o‘quvchilari hayotidan lavhalar beriladi.”Sporttaym”

sahifasida bolalar sporti, “Bu-mi-sol” sahifasida esa musiqa bilan shug‘ullanayotgan yosh iste’dodlar haqida qisqa ma’lumot beriladi. “Bolalar uchun” dasturi haftaning juma kunlari, soat 16-10 da efirga uzatiladi, hajmi 15 daqiqa.

“Bolalar va biz” dasturida bolalar salomatligi, ularning psixologiyasi haqida ma’lumotlar uzatiladi. “Aql charxi” radio o‘yini. Viktorinani bolalarning o‘zi olib boradi. Bu to‘g‘ridan-tug‘ri, interaktiv dastur bo‘lib, bolalar auditoriyasi telefon orqali ham ishtirok etib, savollarga javob beradi. Radioviktorina savollari maktab darsligi asosida tuziladi. “Bolalar radio sahnasida” .Bu dasturda bolalarbop postanovkalar beriladi. “Radiomultfilm” jahon va milliy adabiyot namunalari, ertaklari asosida radiomultfilmlar beriladi. Unda bolalar ham rol ijro etadi. Shuningdek tunda an’anaviy bolalar dasturi ”Bor ekan yo‘q ekan” dasturida ertak aytib beriladi. Bu interaktiv, jonli efir jarayonida bolalar auditoriyasi berilgan savollarga telefon orqali javob beradi. Ma’lumotlar hayvonot, nobotot olami va shaharlar haqida bo‘ladi. Bolalar uchun tayyorlangan radiodasturlarda boy milliy ma’naviyatimiz, madaniyatimiz va qadriyatlarimiz haqida ma’lumot berilib, kelajak bunyodkori bo‘lgan bolajonlarning bilim va ko‘nikmalari oshishiga xizmat qiladi (radioeshittirish).

“Yoshlar” radiokanalida “Bolalar vaqti” – muloqot dasturi berilgan. Mana uch yildirki, bu dastur tugatilgan bo‘lib, ertalabki, “Tonggi parvoz” ikki soatlik musiqiy-ko‘ngilochar dasturda sahifa tarzida beriladi. Bu sahifada bolalar uchun turli, qiziqarli ma’lumotlar beriladi va sahifa so‘nggida radioviktorina tashkil etilib, bolalarbop savollarga, telefon orqali auditoriyadan javob olinadi.”Bolalar vaqti” sahifasi haftaning payshanba, juma, shanba kunlari ertalab, soat 09 -40 da efirga uzatiladi. Shuningdek “Yoshlar” radiokanalida “Bor ekanda, yo‘q ekan” dasturi beriladi. Har kuni 21-05 da boshlanib, 10 daqiqa an’anaviy ertak aytib beriladi. Dastur so‘nggida alla aytib yakuniga yetkaziladi.


### **Xulosa va natijalar**

Mustaqil ekspert Yana Belskayaning ta’kidlashicha, bolalar kontentiga juda yuqori va barqaror talab mavjud. Qanchadan-qancha yangi telekanallar paydo bo‘lmasin, ulni bolajonlar katta qiziqish bilan tomosha qiladilar.

Shu bois bolaga ma’naviy ozuqa juda ehtiyotkorlik bilan berilishi kerak. Unga insonga hurmatsizlik kayfiyatlarini tug‘diradigan narsalarni emas, balki hammadan oldin uni ulug‘lovchi narsalarni taqdim etish kerak. Insonni bolalarga, avvalo buyuk qahramon, noma’lum mamlakatlarni kezgan qo‘rqmas sayyoh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashchi, o‘z orzu-xayollariga sodiq personaj sifatida ko‘rsatish zarurdir (Suyumov, Jumaboyev, 1995).




Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar erta yoshdan passiv iste'molchidan faol iste'molchiga aylanadi, 3-5 yoshdan esa mediakontent tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi (Скоробогатых и др., 2020). Masalan, Rossiyada bolalar televizor, smartfon va Internetdan keng foydalanishadi, youtube orqali o'z tengdoshlarining videobloglarini kuzatadilar va ko'ngilochar dasturlarni tomosha qiladilar (Бамбышева, 2023). Qirg'izistonda bolalar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar va mesenjerlardan foydalanish holatlari ko'paymoqda. Eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar – TikTok, YouTube, Instagram bo'lsa, eng mashhur mesenjerlar – WhatsApp, Telegram, Discord sanaladi (Дети и медиапотребление. Кыргызстан 2021). Yurtimizda ham bolalar asosiy vaqtini televizor, mobil qurilma, Internetda o'tkazmoqda. Ammo chekka qishloqlarda kichkintoylar va o'smirlar Internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi deb bo'lmaydi. Ushbu ma'lumotlar bugungi kunda bolalarning qaysi mediakontentni tomosha qilishini aniqlash maqsadida telegram kanali orqali o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tasdiqlaydi. Mazkur so'rovnomada 400 nafar respondent ishtirok etgan. Ularga "Farzandingiz qaysi telekanalni ko'radi?" degan dastlabki savol bilan murojaat etilgan. So'rovnoma ishtirokchilarining 17 foizi "Bolajon" telekanali, 41 foizi "Aqlvoy" telekanali, 42 foizi esa umuman televizor ko'rmasligini bildirgan (1- rasm qarang).



1-rasm

"Nima uchun farzandingiz yoki nabirangiz "Bolajon" telekanalini tomosha qiladi?" Navbatdagi savolga respondentlarning 72 foizi "bolalar ko'rsatuvi va multfilmlari uchun", 10 foizi "viktorinalar tashkil etilgani uchun", 18 foizi esa "youtube tarmog'idan foydalanish imkoniyati bo'lmagani uchun ushbu telekanalni tomosha qilamiz" degan javobni belgilashgan (2-rasm qarang).




2-rasm

Aytish joizki, bolalarni yorqin, kontrastli tasvirlar, tovushlar, his-tuyg'ular, tengdoshlarning ishtiroki, o'yinchoqlar jalb qiladi. Kattaroq bolalarga esa yuqori sifatli rasmlar, chellenjlar, hazil va do'stlar tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy trendlar yoqadi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, bolalarning 10-20% o'z kontenti yaratadi, qolganlari esa faqatgina iste'molchilardir. Avvaliga kichkintoylar ota-onalari ishtirokida Internetga kirishadi, birga mediakontent tomosha qilishadi, 3 yoshdan oshgach, global tarmoqdan mustaqil ravishda foydalanadilar. Yozishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari ovozli qidiruvga murojaat qiladi. Bolalar ilova va o'yinlar yuklab olib, YouTube videorolik va multfilmlarni tomosha qiladilar, musiqa tinglaydilar. O'smirlar esa ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilib, vloglarni kuzatadilar, onlayn xaridlarni amalga oshiradilar. So'rovnoma davomida respondentlarga "Nima uchun farzandingiz yoki nabirangiz "Aqlvoy" telekanalini ko'radi?" degan savol bilan murojaat qilingan. Javoblar esa quyidagicha: (3-rasm qarang)




3-rasm

Telegram ijtimoiy tarmog'i orqali bolalar radioeshittirishi bo'yicha ham so'rovnoma o'tkazilgan. "O'zbekiston radiokanalida berilgan bolalar radiodasturlaridan qaysi birini eshitgansiz?" degan savolga 626 nafar respondentdan 116 nafari javob bergan. Quyida so'rov natijalari bilan bilan tanishishingiz mumkin: (2-rasm qarang)



4-rasm

"Yoshlar" radiokanalida uzatilgan bolalar uchun dasturlardan qaysi birini eshitgansiz?" degan savol bilan telegram foydalanuvchilariga murojaat qilingan. Respondentlarning 28 foizi "Ertakchi bolajonlar" va "Bolalar vaqti", 22 foizi "Katta tanaffus", 17 foizi "Radiomultfilm", 5 foizi "Tramiston malikasi" eshittirishini belgilaganlar (5-rasm qarang).



5-rasm

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, telekanallarga nisbatan radiokanallarda bolalar mediakontenti tinglovchilari kamchilikni tashkil qiladi. Boz ustiga bolalar uchun radiodasturlar ham nihoyatda kamayib ketgan. Nazarimizda mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, kamoloti ustuvor vazifa bo'lgan bugungi kunda radiokanallarda bolalar uchun madaniy-ma'rifiy, sport, ko'ngilochar dasturlarni ko'paytirish zarur. Bolalarga ezgulik, an'analarimizga hurmat, tarixiy qahramonlarimizga o'xshash hislarini singdirish uchun mediakontent soni va salmog'ini oshirish, ayniqsa, sport dasturlari, viktorinalar, bolalar tele va radiojurnali dasturlari doimiy ravishda efirga uzatilishini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, bolalar uchun tele va radiodasturlarni Internet, "Youtube", "Instagram", "Telegram", "Facebook" ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlariga keng tarqatish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi dasturlar barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar ko'rsatuvi va eshittirishlarini,

umuman mediakontentni tahlil qilgan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- O'quv muassasalarida "Ota-onalarning media kompetensiyasi" kurslari tashkil qilish;
- Maktablarda "Mediasavodxonlik" fanini joriy etish;
- Raqamli makonda ota-ona va bola o'zaro munosabatlari istiqbollarini o'rganish;
- Bolalarning turli yosh toifalari va o'smirlarning raqamli qurilmalardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish;
- "Ta'lim tizimi va metodologiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish" mavzusida seminarlar olib borish;
- Kibertahdidlar yuzaga kelganda bolalarning xatti-harakatlari qoidalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Bolalar xavfsiz media muhitga ega bo'lish huquqiga ega. Kattalar bolaga mazkur muhit bilan muloqot qilishini ta'minlash va uni zararli media kontentdan himoya qilishga mas'ul. Bola ulg'aygani sayin ota-onalarning roli ham o'zgarib boshlaydi. Bolaning media muhit resurslari – jurnal, gazeta, kitob, teleko'rsatuv, film, kompyuter va videoo'yin, Internet va musiqadan foydalanishini turli usullar bilan yo'naltirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

«Aqlvoy» telekanalida bolalar uchun noma'qul bo'lgan sahnalar efirga uzatildi. 2021. Elektron resursga: <https://xs.uz/uzkr/post/aqlvoj-telekanalida-bolalar-uchun-nomaqul-bolgan-sahnalar-efirga-uzatildi> Kirish sanasi: 27.02.10.2024.

Rahmonova, N. 2022. "Bulbulcha" ansamblining kelajagi kimning qo'lida qoldi yohud 45 yillik ko'rsatuv qanday sabab bilan to'xtatilgan? 2022. Elektron resursga: [https://uza.uz/ru/posts/bulbulcha-ansamblining-kelazhagi-kimning-qolida-qoldi-yoxud-45-yillik-korsatuv-qanday-sabab-bilan-toxtatilgan\\_359295?q=%2Fposts%2Fbulbulcha-ansamblining-kelazhagi-kimning-qolida-qoldi-yoxud-45-yillik-korsatuv-qanday-sabab-bilan-toxtatilgan\\_359295](https://uza.uz/ru/posts/bulbulcha-ansamblining-kelazhagi-kimning-qolida-qoldi-yoxud-45-yillik-korsatuv-qanday-sabab-bilan-toxtatilgan_359295?q=%2Fposts%2Fbulbulcha-ansamblining-kelazhagi-kimning-qolida-qoldi-yoxud-45-yillik-korsatuv-qanday-sabab-bilan-toxtatilgan_359295) Kirish sanasi: 27.02.10.2024.

Suyumov, A.; Jumaboev, M. 1995. Bolalar adabiyoti. Toshkent. O'qituvchi. 224.

Sodiqov, B.; Qo'chqorov, L.; Qurbonov, Sh. 2005. Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigienasi. Toshkent. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 17-18.

O'zbekistonda bolalar soni qancha? Statistika qo'mitasi ma'lum qildi. 2022. Elektron resursga: <https://darakchi.uz/uz/145879> Kirish sanasi: 27.02.10.2024.

Бамбышева, Д.Ч. 2023. Формирование потребителя в раннем возрасте (с 1 года до 7 лет) на примере популярных производителей детского питания. Молодой ученый. 19-466. 225-228. Elektron resursga: <https://moluch.ru/archive/466/102594/> Kirish sanasi: 27.02.10.2024.

Говорит и показывает Ташкент. 1977. Под ред. Р.А.Сафарова. Ташкент. Узбекистан. 43.

Губанова, А. Ю. 2017. Медиа контент для детей как элемент образовательного процесса. Медиа образование=Media Education. 2. 152-169. Электронный ресурс: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediakontent-dlya-detey-kak-element-obrazovatel'nogo-protsessa/viewer> Дата обращения: 27.02.2024.

Дети. Медиа потребление. 2017. Отчет MOMRI. Электронный ресурс: [https://cyberpsy.ru/articles/children\\_media\\_2017\\_momri/?ysclid=h9rg7ikkm388721836](https://cyberpsy.ru/articles/children_media_2017_momri/?ysclid=h9rg7ikkm388721836) Дата обращения: 27.02.2024.

Дети и медиа потребление. Кыргызстан. 2021. Электронный ресурс: [https://edu.gov.kg/media/ДЕТИ\\_И\\_МЕДИАПОТРЕБЛЕНИЕ\\_FINAL.pdf](https://edu.gov.kg/media/ДЕТИ_И_МЕДИАПОТРЕБЛЕНИЕ_FINAL.pdf) Дата обращения: 27.02.2024.

Детский эфир: просмотр российского видео для малышей вырос вдвое. 2022. Электронный ресурс: [https://kidsoboz.ru/article/detskiy\\_efir\\_prosmotr\\_rossiyskogo\\_video\\_dlya\\_malyishey\\_vyiros\\_vdvoe/](https://kidsoboz.ru/article/detskiy_efir_prosmotr_rossiyskogo_video_dlya_malyishey_vyiros_vdvoe/) Дата обращения: 27.02.2024.

Макаренко, Е.Ю. 2018. Медиа исследования детской журналистики: рекламизация и цифровизация. Материалы VII Международной научно-практической конференции НАММИ. Электронный ресурс: <https://www.journ.msu.ru/upload/iblock/e5f/e5f6bb91723960b9af59dc32e79deba2.pdf> Дата обращения: 27.02.2024. 111-112.

Осипова, Н.А. 2019. Детская журналистика как один из видов культурных практик в условиях современного детского сада. В сборнике: наука и инновации — современные концепции. сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума. 63-66.

Павлова, А.Н.; Селиверстова, Т.Ф. 2020. Детская журналистика и электронная газета как инновационная форма работы со старшими дошкольниками в детском саду. Ментор. 3. 32-37.

Ситникова, А.Е. 2022. Коммуникативно-речевое развитие старших дошкольников посредством детской журналистики. Сборник статей III Международного учебно-исследовательского конкурса. Петрозаводск. 53-63. eLIBRARY ID: 49559176

Чмир, Р.А.; Худавердиева, К.М.; Привалов, А.А. 2019. Детская журналистика как педагогический феномен в дополнительном образовании. Наука и Образование. 2-2. 410.

Скоробогатых, И.И.; Волошина, П.А.; Волошина, Г.А. 2020. Привлечение внимания потребителей детских игрушек средствами SMM. Сборник статей II Международной научной конференции. 73-83. Электронный ресурс: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42594180> Дата обращения: 27.02.2024. 111-112.

Kleemans, M.; Dohmen, R.; Schlindwein, L. F.; Tamboer, S. L.; de Leeuw, R.N. & Buijzen, M. 2019. Children's cognitive responses to constructive television news. Journalism. 20-4. 568-582. <https://doi.org/10.1177/1464884918770540>

Radio "Oltin fond" RD-43735.

Radio "Oltin fond" RD-12991, RD-12981, RD-16725.

Radio "Oltin fond" RV-55312.

"Televideniye tarixi" ko'rsatuvi. <https://www.youtube.com/watch?v=Es22RrZNad8>

**Муаллифлар ҳақида:**

ЗОҲИДОВА Юлдуз — Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети “Халқаро ва аудиовизуал журналистика” кафедраси мудири, филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), yulduz.zohidova83@mail.ru

ХОННАЕВА Улжамол — Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети “Халқаро ва аудиовизуал журналистика” кафедраси катта ўқитувчиси, uljamolxonmayeva7@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ МЕДИАКОНТЕНТА, ПРЕДНАЗНАЧЕННОГО  
ДЛЯ ДЕТЕЙ

**Аннотация:** Детские передачи всегда были актуальны в аудиовизуальной журналистике. На примере телевидения и радио теле- и радиожурналисты всегда с большим чувством ответственности готовили передачи для детей. В эфир выходили передачи, подходящие для детей разного возраста, ориентированные на их интересы и посвященные социально-идеологической, духовно-просветительской, спортивной, музыкально-развлекательной тематике. В статье констатируется, что если раньше передачи, подготовленные для детей на радиоканалах, собирали большую аудиторию, то сегодня количество детских радиопередач сократилось и этому вопросу не уделяется внимания. При этом были проанализированы различные интересные передачи, подготовленные редакцией «Болалар ва ўсмирлар» и транслировавшиеся в прямом эфире телевидения. Передачи, которые сейчас показывают детям на телеканалах «Bolajon» и «Aqlvo», показали, насколько сильно они влияют на их мировоззрение, разум и дух. Кроме того, было отмечено, что современный ребенок смотрит тот медиаконтент, который хочет, посредством телевидения, радио, Интернета, социальных сетей и мессенджеров. Однако было отмечено, что каждому родителю следует обратить серьезное внимание на то, что дети — как мальчики, так и девочки, — слишком привязаны к данному медиаконтенту, и объяснить его положительные и отрицательные стороны.

**Ключевые слова:** детская аудитория, медиаконтент, программа, эфир, телерадиоканал, Интернет, социальная сеть и мессенджер.

**Об авторах:**

ЗОҲИДОВА Юлдуз — PhD, филологические науки, заведующая кафедрой «Международная и аудиовизуальная журналистика» Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, yulduz.zohidova83@mail.ru

ХОННАЕВА Улжамол — старший преподаватель кафедры «Международная и аудиовизуальная журналистика» Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, uljamolxonmayeva7@gmail.com



## FEATURES OF MEDIA CONTENT INTENDED FOR CHILDREN

**Abstract:** Children’s programs have always been relevant in audiovisual journalism. Taking this as an example of television and radio, TV and radio journalists have always prepared programs for children with great sense of responsibility. Broadcasting and shows suitable for children of different ages, aimed at their interests and dedicated to social-ideological, spiritual-educational, sports, music-entertainment topics are broadcasted. In the article, it is stated that previously broadcasts prepared for children on radio channels gathered a large audience, today the number of children's radio broadcasts has decreased and attention is not paid to this issue. At the same time, various interesting programs prepared by the editors of “Children and Teenagers” and broadcast live on television were analyzed. The shows that are currently being shown to children through “Bolajon” and “Aqlvoy” TV channels have revealed how much they influence their outlook, mind and spirit. In addition, it was noted that today’s child watches the media content he wants through television, radio, Internet, social networks and messengers. However, it was noted that every parent should pay serious attention to the fact that children, boys and girls are too attached to these media contents, and explain about its positive and negative aspects.

**Keywords:** children’s audience, mediacontent, program, broadcast, TV and radio channel, Internet, social network and messenger

### **About the Authors:**

ZOHIDOVA Yulduz — PhD in Philological Sciences, head department of «International and Audiovisual Journalism» of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, yulduz.zohidova83@mail.ru

XONNAYEVA Uljamol — senior lecturer at the department of «International and Audiovisual Journalism» of University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, uljamolxonmayeva7@gmail.com